

BUXORONING JAHON SIVILIZATSIYASIDAGI O'RNI: XVI-XVII ASRLARDAGI ME'MORIY MEROS VA BEZAK SAN'ATI TAHLILI

<https://doi.org/10.70728/orien.v07.i01.027>

Lobar Sherbayevna Shukurova

lobar.shukurova.87@mail.ru

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada XVI-XVII asrlarda Buxoro shahrida shakllangan me'moriy meros va badiiy bezak san'atining tarixiy hamda madaniy ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda Buxoroning mazkur davrda jahon sivilizatsiyasi miqyosida muhim ilmiy-ma'naviy va me'moriy markaz sifatida tutgan o'rni yoritiladi. Shayboniylar davridagi shaharsozlik siyosati, me'moriy inshootlarning barpo etilishi va tarixiy obidalar bezagida keng qo'llangan o'simliksimon hamda geometrik naqshlarning ramziy va badiiy mazmuni ochib beriladi. Maqolada tarixiy manbalar va zamonaviy tadqiqotlar asosida Buxoro me'morchiligining jahon madaniy merosiga qo'shgan hissasi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Buxoro, me'morchilik, bezak san'ati, madrasa, masjid, maqbara, tarixiy meros, geometrik naqsh, islom san'ati

THE ROLE OF BUKHARA IN WORLD CIVILIZATION: AN ANALYSIS OF ARCHITECTURAL HERITAGE AND DECORATIVE ART IN THE 16TH-17TH CENTURIES

Lobar Sherbaevna Shukurova

lobar.shukurova.87@mail.ru

Kamoliddin Behzod National Institute of Fine Arts and Design

Abstract: this article examines the historical and cultural significance of the architectural heritage and decorative art formed in the city of Bukhara during the sixteenth and seventeenth centuries. The study highlights Bukhara's role in this period as an important scientific, spiritual, and architectural center within the context of world civilization. Particular attention is given to urban development policies of the Shaybanid era, the construction of architectural monuments, and the symbolic and artistic meanings of vegetal and geometric ornaments widely used in historical buildings. Based on historical sources and contemporary research, the article substantiates Bukhara's contribution to world cultural heritage.

Keywords: Bukhara, architecture, decorative art, madrasa, mosque, mausoleum, historical heritage, geometric ornament, Islamic art

Buxoro shahri asrlar davomida Markaziy Osiyo tarixiy-madaniy hududining muhim markazlaridan biri sifatida shakllangan. Uning tabiiy-geografik joylashuvi, iqtisodiy salohiyati va geosiyosiy ahamiyati tufayli shahar nafaqat mintaqaviy, balki jahon sivilizatsiyasi rivojiga ham salmoqli hissa qo'shgan. Ayniqsa, XVI-XVII asrlardagi Buxoro hududidagi me'moriy taraqqiyot, shaharsozlik an'analari va badiiy bezak san'ati rivoji bu hududning tarixiy o'ziga xosligini yaqqol namoyon etadi.

Mazkur davrda Buxoro Shayboniylar sulolasi hukmronligi sharoitida siyosiy-iqtisodiy tiklanishni boshdan kechirgan. Bu jarayonda ko'plab madrasalar, masjidlar, maqbaralar, karvonsaroylar va toqi binolar barpo etilgan, mavjud tarixiy yodgorliklar qayta ta'mirlangan. Inshootlardagi bezaklar, xususan, o'simliksimon va geometrik naqshlar islomiy estetika va mahalliy san'at an'alarining uyg'unlashuvini aks ettirgan.

Ushbu maqolada aynan XVI-XVII asrlardagi me'moriy faoliyat va bezak san'atining shakllanishi, ularning badiiy xususiyatlari hamda Buxoroning jahon madaniy merosiga qo'shgan hissasi ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Mavzuga oid tarixiy manbalar va ilmiy-tadqiqot ma'lumotlari orqali mazkur davrning madaniy salohiyati kompleks tarzda o'rganiladi.

Buxoro shahrining o'rta asrlardagi siyosiy, madaniy va me'moriy ahamiyatini o'rganishda tarixiy manbalar muhim o'rin tutadi. Xususan, X asr tarixchisi Muhammad Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asari bu yo'nalishdagi eng qadim va ishonchli manbalardan biridir. Asarda shaharning geografik joylashuvi, bozor va masjidlar, inshootlar toifalari, shuningdek, uning boshqaruv tizimi haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Asarda islom dinining Buxoroga kirib kelishi va buning me'moriy hayotga ta'siri alohida qayd etilgan¹. Ma'naviy o'zgarishlar arxitekturada yangi shakllar va islomiy mazmundagi bezaklarning yuzaga kelishiga olib kelgan. Ushbu ma'lumotlar keyingi davr, ya'ni XVI-XVII asrlardagi me'moriy an'analarning tarixiy ildizlarini anglashda asosiy manba sifatida xizmat qiladi.

XVI asr Buxoroning siyosiy va madaniy hayotini o'rganishda Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" (forscha: "Sharafnomayi shohiy") asari muhim manba hisoblanadi. Asarda Shayboniylar sulolasi davridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, hokimiyatning markazlashuvi, jamiyat tuzilishi va madaniy taraqqiyot keng qamrovda yoritilgan. Muallif tarixiy voqealarni boy manbalarga tayangan holda, aniq va faktlarga asoslangan tarzda bayon qilgan. Shu bilan birga, asarda Abdullaxon davrida shaharsozlik va qurilish ishlari, jumladan, masjid, madrasa, xonaqoh va boshqa

¹ Наршахий М. Бухоро тарихи. – Тошкент: Шарқ машъали, 1993. – 126 б.

me'moriy inshootlarning bunyod etilishi haqida ham ma'lumotlar berilgan¹. Ushbu tasvirlar davr me'morchiligidagi rivojlanish jarayonlarini, hukmdorlar homiyligida amalga oshirilgan badiiy-me'moriy faoliyatning ko'lamini ko'rsatib beradi.

Buxoro me'moriy merosini o'rganishda G.A.Pugachenkova va L.I.Rempel tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar muhim manbalar sirasiga kiradi. Mualliflar o'z ishlarida Buxoro obidalarining joylashuvi, tarixiy qurilishi va ijtimoiy vazifalariga alohida e'tibor qaratadilar. Ularning tahlilida inshootlar nafaqat me'moriy shakl, balki madaniy va funksional tuzilma sifatida yoritilgan². Bu yondashuv XVI-XVII asrlarga oid yodgorliklarning shahar tuzilishidagi o'rni va tarixiy ahamiyatini baholashda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek milliy me'moriy bezak san'atini nazariy-ilmiy jihatdan o'rganishda pedagogika fanlari doktori, professor S.S. Bulatovning tadqiqotlari alohida o'rin tutadi. Xususan, uning "Go'zallik falsafasi" nomli monografiyasida milliy me'morchilik va amaliy bezak san'atining inson tarbiyasidagi o'rni, bezaklarda mujassamlashgan falsafiy g'oyalar, ramziy ma'nolar va estetik prinsiplari tahlil etilgan³. Muallif tomonidan Markaziy Osiyodagi bezak san'atida qush, hayvon va o'simlik obrazlarining ramziy ifodalariga bag'ishlangan qarashlar, ushbu unsurlarning inson tafakkuriga ta'siri va tarbiyaviy ahamiyati ochib berilgan. Mazkur yondashuv XVI-XVII asr Buxoro me'moriy bezaklarini falsafiy tahlil etishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, O'zbekistonda xalq amaliy bezak san'atiga bag'ishlangan ilmiy-ommabop kitoblar va ko'rgazmali albomlarda ham Buxoro me'moriy yodgorliklaridagi badiiy bezaklar haqida qimmatli ma'lumotlar berib o'tilgan. Jumladan, "O'zbekiston obidalaridagi bitiklar" kitob-albomini Buxoroga bag'ishlangan qismlarida koshinpazlik, marmar va ganch o'ymakorligi, yog'och ishlovi hamda devoriy naqqoshlik san'atining kompozitsion yechimlari, bezak shakllari va texnik uslublari tasvirlangan⁴. Ushbu ma'lumotlar mahalliy badiiy maktablar taraqqiyotini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Ushbu maqolani tayyorlashda tarixiy va ilmiy manbalar, shuningdek, Buxoro shahrida saqlanib qolgan me'moriy yodgorliklarga oid materiallar asos qilib olindi.

Nazariy manbalar sifatida Muhammad Narshaxiyning "Tarixi Buxoro", Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" kabi tarixiy asarlari, shuningdek,

¹ Хофиз Таниш Бухорий. Абдулланом. биринчи китоб /форс тилидан С.Мирзоев таржимаси, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Б. Ахмедов. –Тошкент: Шарк, 1999. – 416 б.

² Пугаченкова Г.А, Ремпель Л.И. Бухара (Узбекистан). - Москва: Академия архитектуры СССР, 1949, - 67 с., Ремпель Л.И. Далекое и близкое (страницы жизни, быта, строительного дела, ремесла и искусства старой Бухары). - Ташкент: Издательство литературы и искусство имени Гафур Гуляма, 1982. -300 с.

³ С.С Булатов, Н.Х.Талипов. Гўзаллик фалсафаси. Монография. – Тошкент: "LAVITA PRINT" нашриёти, 2025. – 202 б.

⁴ Ўзбекистон обидаларидаги битиклар Бухоро. Биринчи қисм: Китоб-альбом / Лойиха таҳбари: Абдухоликов Ф. – Тошкент: "UZBEKISTAN TODAY", 2016. – 560 б.

G.A.Pugachenkova, L.I.Rempel va S.S.Bulatov kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlari tahlil qilindi.

Amaliy jihatdan esa Buxoro shahridagi XVI-XVII asrlarga oid masjid, madrasa, maqbara va karvonsaroylar kabi me'moriy yodgorliklar o'rganildi. Inshootlarda qo'llanilgan o'simliksimon va geometrik naqshlar, kompozitsion yechimlar, bezak tizimlari hamda uslubiy uyg'unlik tasviriy-tahliliy usullar yordamida tahlil qilindi.

Metodologik yondashuv sifatida tarixiy-tahliliy, tasviriy-taqqoslama hamda ramziy-ma'no tahlili (semantik tahlil) usullaridan foydalanildi. Ushbu usullar orqali me'moriy bezaklarda mujassam bo'lgan falsafiy g'oyalar, tarkibiy-qurilish xususiyatlari hamda ularning jahon sivilizatsiyasidagi o'rni ilmiy jihatdan asoslangan holda ochib berildi.

Ikki daryo - Amudaryo va Sirdaryo orasida joylashgan hudud qadimdan inson hayoti uchun qulay tabiiy-geografik sharoitlarga ega bo'lib kelgan. Serhosil vodiylar, unumdor yerlar va tabiiy boyliklar qishloq xo'jaligi, chorvachilik va hunarmandchilik kabi sohalarning barqaror rivojlanishiga zamin yaratgan. Ushbu omillar tufayli Movarounnahr, Turkiston, Markaziy Osiyo nomlari bilan mashhur bo'lgan hududda ilk davlatchilik an'analari, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va madaniy hayot miloddan avvalgi davrlardanoq shakllana boshlagani ilmiy manbalarda tasdiqlangan.

Ushbu tarixiy jarayonlarda Buxoro shahri alohida o'rin tutadi. Geosiyosiy maqomi, iqtisodiy salohiyati va madaniy muhiti tufayli Buxoro asrlar davomida Markaziy Osiyoning eng yirik ilmiy, diniy va me'moriy markazlaridan biriga aylangan. Buxoro nafaqat savdo-sotiq va hunarmandchilik, balki amaliy san'at va me'morchilik sohaslarida ham katta ahamiyatga ega maskan sifatida tanilgan. Bugungi kunda ham shahardagi madrasalar, masjidlar, maqbaralar va boshqa me'moriy yodgorliklar milliy va jahon madaniy merosining muhim qismi sifatida ilmiy jihatdan o'rganib kelinmoqda.

Buxoro shahri juda qadimiy bo'lib, eng qadim zamonlarda qanday atalganligi noma'lum. Xususan, X asrda yashab o'tgan tarixchi Muhammad Narshaxiy: "Buxoro ko'p ismlarga ega. "Numijkat", "Bumiskat" deb keltirilgan. Boshqa bir joyda arab tilida "Madinat us-sufriya", ya'ni "Mis shahar", yana boshqa bir joyda arab tilida "Madinat ut-tujjor", ya'ni "Savdogarlar shahri" deb yozilgan. Buxoro degan nom u nomlarning hammasidan mashhurroqdir", - deb ta'kidlaydi¹.

XX asrda olib borilgan qator tadqiqotlarda Buxoro shahri quldorlik tuzumi inqirozi davrida, mintaqadagi hududiy jamoalar va yirik siyosiy tuzilmalar o'rtasidagi raqobat natijasida shakllangan, qadimdan savdo va hunarmandchilik markazi bo'lgan shahar sifatida tavsiflangan².

¹Наршахий М. Бухоро тарихи. – Тошкент: "Фан" нашриёти, 1993. – Б. 27.

²Пугаченкова Г., Ремпель Л. Бухара(Узбекистан). - Москва: Академия архитектуры СССР, 1949, - С. 7.

Buxoro haqidagi ilk yozma ma'lumotlardan biri V asrga oid Xitoy manbalarida uchraydi. Ularda shahar "Nyumi" nomi bilan tilga olinib, shu nomdagi mulk hukmdorining qarorgohi ekani qayd etilgan. VII asrga oid Tan sulolasi solnomalarida esa Buxoro turli variantlarda - An, Ango, Ansi, Buxo (yoki Buxe, Fuxo) shakllarida zikr etilgan. Ushbu manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra, buxorxudotlar sulolasi o'zini yuechji qavmlarining Chjaou xonadoniga bog'lagan va shajaralarida 22 bo'g'in avlod keltirilgan. Shuningdek, ular sug'd hukmdorlari bilan mushtarak nasl-nasabga ega bo'lgan.

Tarixiy manbalarda Buxoro nomi turli tillar va manbalarda xilma-xil tarzda qayd etilgan. Arabcha manbalarda u "Bumiskat", "Madinat us-sufriya" (Mis shahri), "Numijkat" kabi nomlar bilan atalgan. Sug'dcha "numij" yoki "namich" so'zlari "mashhur" ma'nosini anglatgan. Mahalliy manbalarda esa "Buxor" so'zi "sanamlar saqlanadigan ibodatxona" ma'nosini beruvchi atama sifatida izohlangan. Bu esa shaharning ilk diniy va madaniy vazifalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, buddaviylik va zardushtiylik kabi dinlar tarixidagi markazlar, qurbonlik maskanlari hamda marosimiy ibodatxonalar bilan uzviy aloqada bo'lganini anglatadi.

VII asrda islom dini Arabiston yarim orolida paydo bo'lib, bosqichma-bosqich Buxoro va Movarounnahr hududlariga tarqaldi. Ushbu hududda islom mahalliy an'analar va dunyoqarash bilan uyg'unlashib, o'ziga xos shaklda namoyon bo'ldi. Natijada amaliy san'at sohalari - me'morchilik, xattotlik, naqqoshlik va kulolchilikda yangi uslub shakllandi. Islomdan avvalgi davr tasviriy san'atida odam, hayvon, bazm va jang sahnalari tasvirlangan bo'lsa (masalan, Afrosiyob, Varaxsha, Bolaliktepa yodgorliklarida), islom dini kirib kelgach, jonli mavjudotlarni tasvirlash cheklanib, ularning o'rnini o'simliksimon va geometrik naqshlar egallagan¹.

Islom me'morchiligida badiiy bezaklar nafaqat zeb-ziynat, balki me'moriy tuzilishda kompozitsion va ramziy uyg'unlikni ta'minlovchi muhim omil sifatida xizmat qilgan. Minora, gumbaz, peshtoq va devorlar bezaklar orqali o'zaro kompozitsion bog'langan. Bezaklar asosan o'simliksimon va geometrik shakllarga asoslangan bo'lib, ularda simmetrik takrorlanish va muayyan geometrik qonuniyatlar kuzatiladi. Bu orqali ilohiy tartib g'oyasi aks etgan. Badiiy ifodada shakl va rang uyg'unligi orqali asarning ichki mazmuni kuchaygan. Markaziy Osiyo, xususan Buxoroda ushbu an'analar mahalliy uslublarning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. O'zbek xonliklari davrida ushbu uslubiy barqarorlik yanada rivojlangan.

Ana shunday tarixiy sharoitda XIII-XV asrlar Buxoro tarixida mo'g'ullar bosqini, Amir Temur hokimiyati va Temuriylar davridagi madaniy yuksalish muhim ta'sir ko'rsatgan. 1220-yilda Chingizxon qo'shinlari Buxoroni bosib olib, shaharga katta talafot yetkazgan bo'lsada, qisqa fursat ichida uning tiklanishi boshlangan. Savdo,

¹ С.С Булатов, Н.Х.Галипов. Гўзаллик фалсафаси. Монография. – Тошкент: "LAVITA PRINT" нашриёти, 2025. – Б. 4.

iqtisodiy faoliyat va siyosiy barqarorlik davom etgan. XIV asr oxirida Amir Temur Markaziy Osiyoni birlashtirib, siyosiy va madaniy barqarorlikka erishgan. Temuriylar davrida yirik me'moriy inshootlar barpo etilgan, ilm-fan va adabiyot yuksak darajada rivoj topgan. XV asrning ikkinchi yarmida davlatning parchalanishi, hokimiyat uchun kurashlar va xalq orasida norozilik kayfiyatlarining kuchayishi XVI asr boshlarida o'zbeklar hokimiyati uchun zamin yaratgan. Buxoro xonligiga Shayboniylar sulolasi asos solib, 1500-1601-yillarda hukmronlik qilgan¹.

Aynan shu tarixiy sharoitlar zahirida ham XVI-XVII asrlardagi me'moriy bezak san'ati rivoji to'xtamagan. Davlat iqtisodi, hukmdorlar ehtiyoji va zamon talablari bilan bog'liq holda me'moriy bezak san'ati ayrim davrlarda yuksalgan, ayrim hollarda esa tanazzul sari yuz tutgan, ba'zi vaziyatlarda esa betakror badiiy asarlarning yaratilishi bilan davom etgan².

Temuriylar saltanatining inqirozi hamda o'zbeklar hokimiyatining o'rnatilishi Buxoro hayotida yangi bosqichni boshlab bergan. Biroq bu siyosiy o'zgarishlar mamlakat xo'jalik tizimiga jiddiy zarba bergan. Jahonda savdo yo'llarining o'zgarishi, dengiz yo'llarining taraqqiyoti hamda Yevropada mustamlakachilik siyosatining boshlanishi Buxoroning savdo aloqalaridagi ta'sirini kamaytirgan. Natijada shahar hayoti og'irlashib, savdo va hunarmandchilik faoliyati ancha pasaygan.

Buxoro Markaziy Osiyodagi siyosiy jarayonlar sharoitida o'z ahamiyatini asta-sekin tiklab, XVI asrda yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo'ygan. Abduazizxon (1540-1549) davrida shahar hududi kengaytirilib, yangi devor qurilgan. Ushbu devor rabotlarni qamrab olib, shahar hududini hozirgi maydonga yaqinlashtirgan. Abdullaxon (1557-1598) davrida esa Jo'ybor mahallasi shahar tarkibiga qo'shilgan³. Bu o'zgarish shaharning siyosiy va ijtimoiy tuzilmasida muhim burilish yasab, xususan, Jo'ybor xojalari bilan bog'liq nufuzli aloqalarning kuchayishiga ta'sir ko'rsatgan⁴.

Ta'kidlash joizki, Buxoro XVI asrga kelib o'zining hozirgi asosiy qiyofasini shakllantirgan bo'lib, aynan shu davrda me'moriy yodgorliklarning katta qismi barpo etilgan⁵. Ular qatoriga Abdullaxon va uning onasi madrasalari, Ko'kaldosh, Govkushon, Mir Arab hamda Fathullo Qushbegi (1935-yilda madrasa butkul buzilgan. Hozir bu joyda "Modarixon" mehmonxonasi joylashgan) madrasalari, jome masjididi hamda bir necha kichik masjidlar kiradi. Shu bilan birga, bir qator fuqarolik me'moriy inshootlari - Toqi Sarrofon, Toqi Telpakfurushon, Toqi Zargaron, shuningdek, Abdullaxon timi va Sarrofon hammomi barpo etilgan.

¹ X. Tўраев. Бухоро тарихи. – Бухоро: Дурдона нашриёти, 2020. – Б. 131-132.

² Ҳерман Вамбери. Бухоро ёхуд мовароуннахр тарихи. Тошкент: Фафур Фулом номидаги "Адабиёт ва санъат нашриёти". 1990. – Б. 92.

³ Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства (историко-этнографические очерки).-Ташкент: Изд-во академии наук Узбекской ССР. 1958. – С.46.

⁴ В.А. Шишкин. Архитектурные памятники Бухары. –Ташкент: Издательство комитета наук, 1936. – С. 23-24.

⁵ Хофиз Таниш Бухорий. Абдуллонома. биринчи китоб /форс тилидан С.Мирзоев таржимаси, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Б. Ахмедов. –Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 154.

Bu davrda yangi binolar qurilishi bilan bir qatorda ko‘plab qadimiy yodgorliklar ham qayta ta‘mirlangan. Ulug‘bek madrasasi, Mag‘oki Attor masjidi va Namozgoh masjidi ta‘mirlanib, Chashmai Ayub mozorida tubdan ta‘mirlash ishlari olib borilgan¹.

Shuningdek, Buxoro atroflarida ham ko‘plab yirik binolar barpo etilgan. Sumitan qishlog‘ida (hozirgi Chor Bakr) ziyoratgohlari, katta masjid, maqbara va xonaqohlar, Fayzobod va Bahouddin majmuasi, Sayid Mir Kulol maqbarasi, Xo‘ja Ka‘bul Axbor Vali maqbarasi, Tosh masjidlar, Azizon masjidi, Hakim Mullomir xonaqosi, Azizon maqbarasi, Xo‘ja Muhammad Boboyi Samosiy maqbarasi, Xo‘ja Ubon maqbarasi, Xo‘ja Zafaron maqbarasi, Abdurahmon Safo masjidi, Qizbibi masjid va maqbarasi, Abdurahmon Vali maqbarasi hamda masjidi shular jumlasidandir. Shuningdek, yo‘llar, ko‘priklar, suv sardobalari, karvonsaroilar va rabotlar ham barpo etilgan.

Zamondosh tarixchi olim va shoir Hofiz Tanish Buxoriy “Abdullanoma” (Sharafnomayi shohiy) asarida Abdullaxon davrida, buyuk birlik ramzi sifatida, “ziyrak va adolatli podshoh, ravshan aql (xoqon)” tomonidan qurilgan masjid, madrasa, xonaqoh va boshqa oliy binolar nafaqat islom madaniyatining yuksak namunasi, balki siyosiy-iqtisodiy qudratning ifodasi ham bo‘lganini ta‘kidlaydi. Ushbu binolar nafaqat nozik nafislik va boy naqshlar bilan bezatilgan, balki ularda Qur‘on tilovati, ilm-fan ta‘limi, faqir va miskinlarga taom berish kabi vazifalar ham amalga oshirilgan bo‘lib, madaniy hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan yaxlit majmua sifatida namoyon bo‘lgan².

Shayboniylar davri Buxoro me‘morchiligida badiiy-kompozitsion yechimlarning darvozalar, masjidlar, madrasalar va boshqa inshootlar qurilishida yorqin namoyon bo‘lishi bilan ajralib turadi. Shayboniylar sulolasidan Abduazizxon va Abdullaxon davrida Buxoro atrofi yangi devor bilan o‘rab olinib, darvozalar barpo etilgan. Abduazizxon qurdirgan qal‘a devorlarini Abdullaxon g‘arb tomonga kengaytirib, jami 11 ta darvoza bunyod etilgan. Ular quyidagicha nomlangan: Samarqand darvozasi, Hazrati Imom darvozasi, O‘g‘lon darvozasi, Talipoch darvozasi, Shergiron darvozasi, Qorako‘l darvozasi, Shayx Jalol darvozasi, Namozgoh darvozasi, Salloxona darvozasi, Qavola (Qarshi) darvozasi, Mozori Sharif darvozasi³.

Ahamiyatli tomoni shundaki, qurilish ishlari faqat diniy va madaniy binolar bilan cheklanib qolmagan. Savdo va hunarmandchilik hayoti bilan bog‘liq inshootlarga ham katta e‘tibor qaratilgan. Bu holat Buxoroning o‘sha davrda ham savdo markazi sifatida muhim ahamiyatga ega bo‘lganini ko‘rsatadi.

Xususan, XVII asr Abduazizxon madrasasi, Devonbegi madrasa va masjidi, Bozori g‘usfand hamda Juybor madrasalari kabi yorqin me‘moriy yodgorliklar bilan tavsiflanadi.

¹ В.А. Шишкин. Архитектурные памятники Бухары. –Ташкент: Издательство комитета наук, 1936. – С. 25.

² Хофиз Таниш Бухорий. Абдулланом. биринчи китоб /форс тилидан С.Мирзоев таржимаси, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Б. Ахмедов. –Тошкент: Шарк, 1999. – Б. 156-158.

³ Х. Тўраев. Бухоро тарихи. – Бухоро: Дурдона нашриёти, 2020. – Б. 141.

XVI-XVII asrlarda Buxoro hududida barpo etilgan me'moriy inshootlar nafaqat tarkibiy yechimlari, balki bezaklarining yuqori darajadagi uslubiy uyg'unligi va estetik qiymati bilan ajralib turgan. Ushbu davrga oid masjid va madrasalarning yog'och va ganch ustunlari, ravoqlari, mehrablari hamda peshtoqlarida uchraydigan naqshlar nafaqat dekorativ vazifani, balki g'oyaviy-ramziy ma'nolarni ham ifodalagan.

Tadqiqot jarayonida to'rt asosiy guruhdagi naqshlar alohida tahlil qilindi:

1. O'simliksimon (islamiy) naqshlar.

Bu turdagi ornamentlarda tabiatga nisbatan muhabbat va hayotning bardavomligi ifodalangan. Masalan, oygul, lola, guli bodom, guli savsar kabi shakllar inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikka ishora qilgan. Ushbu naqshlar nafaqat estetik, balki falsafiy-g'oyaviy funksiyaga ham ega bo'lgan.

2. Geometrik naqshlar (girihi).

Murakkab tuzilishga ega bo'lgan bu naqshlar ilohiy mukammallik, tafakkur va tartib ramzi sifatida talqin etilgan. Xususan, 6, 8, 10 va 12 burchakli yulduzsimon tartiblar Buxoro me'morchiligida kosmologik tasavvurlarni anglatgan. Masalan, 8 burchakli yulduz "baxt va muvozanat", 12 burchakli yulduz esa "vaqt va harakat" ramzi sifatida qaralgan.

3. Hayvonot obrazlari.

Ayrim bezaklarda qushlar, xususan semurg' tasviri orqali hur va ozodlik, himoya hamda farovonlik g'oyalari ifodalangan.

4. Ramziy kalligrafik bitiklar.

Ayrim masjid va maqbara peshtoqlarida bezak sifatida joylashtirilgan bitiklar orqali diniy-axloqiy ta'limotlar vizual shaklda ifoda etilgan. Ular islomiy estetik an'analarning bezaklarga singdirilgan namoyon bo'lishi sifatida o'rganilgan.

Me'moriy bezaklar hunarmandchilikning shakllangan an'analari, mahalliy uslublar va islomiy dunyoqarash bilan uyg'unlashib, Buxoroning jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rnini yanada mustahkamlagan.

Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida, bugungi kunda Buxoro shahrida 660 ta moddiy-madaniy meros obyektlari ro'yxatga olingan. Ulardan 231 tasi arxeologiya obyektlari, 364 tasi arxitektura yodgorliklari (8 ta maqbara, 47 ta masjid, 14 ta karvonsaroy, 39 ta madrasa), 19 tasi monumental san'at asarlari, 22 tasi arxitektura ansambllari va 24 tasi diqqatga sazovor joylardir. Shulardan 331 tasi respublika ahamiyatidagi va 329 tasi mahalliy ahamiyatdagi moddiy-madaniy meros obyektlari hisoblanadi.

Xulosa

Buxoro shahrining geosiyosiy joylashuvi, tabiiy-iqlim sharoiti va madaniy merosi uni asrlar davomida Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biriga aylantirgan. Tarixiy manbalar va arxeologik dalillar shaharning qadimdan savdo, hunarmandchilik va diniy markaz sifatida yuksak nufuzga ega bo'lganini tasdiqlaydi.

Maqolada tahlil etilgan ma'lumotlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- Buxoro qadimdan turli xalqlar va sivilizatsiyalar o'zaro ta'sir qilgan hududda joylashgan bo'lib, uning tarixi ko'p qirrali madaniy va siyosiy rivojlanish yo'lini bosib o'tgan.

- Shaharning turli davrlarda qayd etilgan nomlari - Nyumi, Bumiskat, Buxo, Buxoro va boshqalar uning madaniy merosi barqarorlik bilan davom etganini hamda turli siyosiy-diniy ta'sirlar ostida shakllanganini ko'rsatadi.

- Islom dini ta'sirida Buxoro me'morchiligida tasviriy shakllar o'rnini o'simliksimon va geometrik bezaklar egallagan bo'lib, bu holat badiiy va ramziy ma'nolarni o'zida mujassam etgan.

- Buxoroda amaliy bezak san'ati shakl va mazmun jihatidan yuksak darajada taraqqiy etgan bo'lib, badiiy elementlar orqali ilohiy g'oyalar, falsafiy va estetik qarashlar ifodalangan.

- Shayboniylar davrida shaharning siyosiy va madaniy ahamiyati yanada kuchaygan, yangi inshootlar barpo etilib, me'moriy maktablar rivojlangan.

Takliflar

- Buxoro shahridagi me'moriy yodgorliklar va bezak namunalarini tizimli o'rganish hamda raqamlashtirish ishlarini kengaytirish.

- Bezaklardagi stilizatsiyalangan naqshlar, ularning ramziy ma'nolari va falsafiy-badiiy mohiyatini tahlil qilish asosida milliy dizayn maktablarini yaratish.

- Buxoro madaniy merosini xalqaro miqyosda targ'ib qilish uchun multimedia platformalar va ilmiy ma'lumotlar bazasini shakllantirish.

- Maqolada keltirilgan xulosalarni arxitektura, tarix va san'at yo'nalishlari bo'yicha ta'lim jarayonlariga joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Наршахий М. Бухоро тарихи. - Тошкент: Шарқ машъали, 1993. — 126 б.

2. Ҳофиз Таниш Бухорий. Абдуллонома. биринчи китоб /форс тилидан С.Мирзоев таржимаси, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Б. Ахмедов. -Тошкент: Шарқ, 1999. - 416 б.

3. Пугаченкова Г.А, Ремпель Л.И. Бухара (Узбекистан). - Москва: Академия архитектуры СССР, 1949, - 67 с.,

4. Ремпель Л.И. Далекое и близкое (страницы жизни, быта, строительного дела, ремесла и искусства старой Бухары). - Ташкент: Издательство литературы и искусство имени Гафур Гуляма, 1982. -300 с.

5. Ремпель Л.И. Из истории градостроительства на Востоке (материалы по планировке Старой Бухары) // Искусство зодних Узбекистана. - Ташкент, 1962. №1. - С. 47.

6. С.С Булатов, Н.Х.Талипов. Гўзаллик фалсафаси. Монография. - Тошкент: "LAVITA PRINT" нашриёти, 2025. -202 б.
7. А.Ҳақимов. Ўзбекистон санъати тарихи: қадимги давр, асрлар, ҳозирги замон. - Тошкент: Зилол булоқ, 2022.-528 б.
8. Зоҳидов П.Ш. Бухоро. - Тошкент: "Ўзбекистон", 1981. - 90 б.
9. Ртвеладзе Э.В. Великий шелковый путь : энциклопедический справочник : древность и раннее средневековье / Э. В. Ртвеладзе. - Ташкент : Гос. науч. изд во «Узбекистанская национальная энциклопедия», 1999. - 280
10. Ўзбекистон обидаларидаги битиклар Бухоро. Биринчи қисм: Китоб-альбом / Лойиха раҳбари: Абдухолиқов Ф. - Тошкент: "UZBEKISTAN TODAY", 2016. - 560 б.